

**TEXNIKA OLIY O‘QUV YURTLARIDA RUS TILI FANIDAN DARS
MASHG‘ULOTLARINI OLIB BORISHNING PEDAGOGIK TIZIMI
TAHLILI**

Sharipova G.Z.

*Osiyo xalqaro universiteti
birinchi bosqich magistranti*

Hozirgi vaqtda mamlakatda o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda xorijiy tillarni yuqori saviyada o‘rgatish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha prezident va vazirlar mahkamasining qarorlari qabul qilinib kelinmoqda. Bu o‘z navbatida yosh mutaxassislarni xorij mamlakatlarda stajirovka o‘tash, malaka oshirish kurslariga qatnashib, ijobiy natijalarni qayd etish orqali mamlakatning ravnaqi uchun ulkan hissalarini qo‘shishga olib keladi.

Texnika oliy ta‘lim muassasalarida rus tili fanini o‘qitish bo‘yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanib dars mashg‘ulotlari olib borilmoqda. Biroq shu bilan bir qatorda ba‘zi bir kamchiliklar ham mavjud. Misol tariqasida rus tili fanidan olib boriladigan mashg‘ulotlar har bir sohaga tegishli terminlar va iboralar asosida qisman foydalanilgan holda amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan turli xil sohalar jumladan: neft-gaz, kimyo, oziq-ovqat, radio texnika, elektronika, arxitektura, axborot texnologiya, to‘qimachilik sanoatlari bo‘yicha har bir yo‘nalishning malaka talabalaridan kelib chiqib, profiliga mos mashg‘ulotlarni olib borish maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda ko‘pgina yirik ishlab chiqarish korxonalarini mavjud. Shuningdek, yangi qurilayotgan zavodlarda ehtiyoj juda yuqori ekanligi hamma ma‘lum. Bunga 2025-2026 yillar oralig‘ida ishga tushishi rejalashtirilgan MTO texnologiyasi asosida qurilayotgan gaz-kimyo kompleksi misol bo‘la oladi. Buxoro viloyat, Qorako‘l tumanida qurilayotgan yangi majmua, rivojlangan mamlakatlardan yangi investitsiyalarni olib kirmoqa. Shu bilan bir qatorda Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “60711900 – Texnologik jarayonlarni boshqarishning axborot-kommunikatsiya tizimlari”, “60720900 – Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi”, “60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (tarmoqlar bo‘yicha)” va hokazo bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bitiruvchilarini imtihon

asosida saralab olish rejaları tuzilgan. Shuningek, bitiruvchi talabalar o'z sohasi bo'yicha rus tili yoki ingliz tilida erkin muloqot qila olishlari alohida ta'kidlangan. Chunki xorijiy mamlakatlardan olib kelingan zamonaviy yangi texnologiyalarning ishlash printsipli, qo'llanilish sohalari bo'yicha tegishli qo'llanmalar rus tili hamda ingliz tillarida nashr ettirilgan. Bundan tashqari ushbu qurilmalarni real jarayonlarga qo'llash orqali ularni ishga tushirish bo'yicha xorijiy mamlakat mutaxassislari tomonidan master klass va mashg'ulotlar rus tili va ingliz tillarida olib borilishi ko'zda tutilgan.

Har bir soha mutaxassisi o'ziga yuklatilgan funksional vazifani yuqori saviyada o'zlashtirishi uchun ixtisoslik fanlari hamda rus tili va ingliz tillarini puxta egallashi kerak. Shuning uchun ham texnika oliy ta'lim muassasa talabalari uchun o'tiladigan rus tili fanidan tayyorlanadigan o'quv dasturi, tegishli ta'lim yo'nalishining malaka talabalarida keltirilgan kasbiy faoliyat turlariga qarab, o'quv rejada keltirilgan mutaxassislik fanlarining o'quv dastur (sillabus)lariga asoslanib, mavzulari shakllantirilishi kerak. Ushbu rus tili fanidan tayyorlanadigan o'quv dastur (sillabus)lari mashg'ulot mavzularini shakllantirish uchun har bir ta'lim yo'nalish misol qilib, neft gaz kimyo sanoati sohasida tahsil oluvchi talabalarga, neft gaz texnologik jarayonlarida qo'llaniladigan apparatlar to'g'risida, ishlab chiqariladigan mahsulot turlari bo'yicha, turli xil kimyoviy jarayonlar, tizimlar haqida bayon etish maqsadga muvofiq. Elektrotexnika sohasida tahsil oladigan talabalar uchun, elektr tarmog'i bilan ishlaydigan ko'pgina vositalar jumladan, transformatorlar, elektr o'tkazgichlar, dvigatellar va boshqa turdagi elementlar majmui asosida olib borilishi tavsiya etiladi. Axborot texnologiyalar sohasida tahsil oluvchilar uchun, amaliy dasturiy vositlar, elektron hisblash mashinalari, kompyuter tizimlar va tarmoqlari, ma'lumotlar bazasi va shunga o'xshash tushunchalar asosida rus tili fanidan mashg'ulotlarni olib borish yetishib chiqayotgan kadrning sohaga bo'lgan qiziqishini yanada oshishiga sabab bo'ladi.